



## TUPROQ VA SUV GIGIENASI

**Primov Ulug'bek O'ktamovich**

*Buxoro viloyat G'ijduvon tumani*

*Abu Ali ibn Sino nomigagi Jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada suv va tuproq gigienasi va uni to`g`ri tashkil qilishga doir bir qancha bilimlar va ko`rsatmalar bayon qilingan bo`lib, aynan suv va tuproq tabiiy resurslaridan to`g`ri foydalanishga qaratilgan chora –tadbirlar yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** tipik bo‘z tuproq, umumiy fizik xossalari, hajm, solishtirma massa, g‘ovaklik, unumdoorlik, suv , suvning xossalari, suv havzalari

**Аннотация:** В данной статье изложены некоторые знания и указания по гигиене воды и почвы и ее правильной организации, а также освещены меры, направленные на правильное использование водных и почвенных природных ресурсов.

**Ключевые слова:** серозем типичный, общефизические свойства, объём, удельный вес, пористость, продуктивность, вода, свойства воды, водоёмы.

Bugungi kunda respublikamizda er va suv resurslaridan, xususan, sug‘oriladigan tuproqlardan oqilona hamda samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, tuproqlarning va suvlarning fizik, kimyoviy hamda biologik xossa-xususiyatlarini uning unumdoorligiga ta’sirini tadqiq etish, baholash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli tuproq va suvning gigiyenik yaroqliligin oshirish, saqlash va muhofaza qilish hamda baholashda fizik, kimyoviy xossalari o‘rganilmoqda.

Iste’mol qilinadigan suv quyidagi qabul qilingan gigiena me`yorlariga javob berishi kerak:

- suv axolining barcha extiyojlariga kerak bo`lgan miqdorda olib kelinishi kerak;
- suv tiniq, rangsiz, xidi va ta’mi o’zgarmagan ma’lum temperaturaga ega va bardam qiladigan bo`lishi kerak;
- aniq va nisbatan doimiy ximiyaviy tarkibga ega bo`lishi kerak, kishi sog’lig’iga zarar keltiradigan ortiqcha tuz bo`lmasligi, zaxarli va radiaktiv zarrachalardan xoli bo`lishi kerak;
- tarkibida patogen bakteriyalar va gjija tuxumlari, g’umbaklari bo`lmasligi kerak.



Vodoprovod suvi nimaga ishlatalishidan (ichish, ko`chalarga sepish uchun va xakazo) qatiy nazar, yuqorida aytib o`tilgan talablarga javob berishi kerak. Umumiy suv xavzalarining atrofi o`ralib sanitariya xodimlari tomonidan muxofaza qilinishi lozim.

Suvga bo`lgan sutkalik extiyoj muxit temperaturasiga va jismoniy mexnat turiga bog'liq. Sutkada ichiladigan suv va oziq-ovqat orqali olinadigan suv miqdori organizmni ta'minlashi kerak. Bir sutkada ichiladigan suv ish xarakteriga va tashqi muxit ta'siriga qarab aniq miqdorga ega bo`lishi zarur. Xaddat tashqari suvni ko`p istemol qilish organizmni og'irlashtiradi. Ko`p terlashga sabab bo`ladi. Yurak ishini og'irlashtiradi. Chidamlilik va ish qobiliyatini pasaytiradi. Birdaniga ko`p suv ichish bir necha vaqt qon tomirlarni to`ldirib yuboradi va osmotik bosimni pasaytiradi. Suv odam xayotida juda katta va xilma-xil rol o`ynaydi. U avvalo odam organizmini me`yorida saqlanishida juda katta ahamiyat kasb etadi. Odamda uning vazniga nisbatan 60% suv mavjud. Suvning katta qismi organizm xujayralari orasida, qolgan qismi esa to`kimalar orasidagi suyuqliklarda, qonda, limfada, ovqat xazm qilish shirasida va xar-xil bezlar suyuqliklarida joylashgan. Odam organizmida suv barcha fizik-kimyoviy jarayonlarda ishtirok etadi. Shuning bilan bir qatorda ovqatning qonga so`rilishi assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari uchun, erigan va yarim erigan xolda oxirgi maxsulotni chiqarish va issiqqlik almashinushi uchun zarur bo`ladi.

Suvdan foydalanishni samarali tartibga solishni ta'minlash uchun suv resurslarini boshqarish bo'yicha yangi tuzilmalar yaratilgan, ichimlik suvi ta'minoti va suv ishlab chiqarish sohasiga xususiy sektorni jalb qilish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Biroq, global iqlim o'zgarishi tufayli respublikada quruq fasllarning davomiyligi oshib bormoqda, tog'larda qor zahiralari maydoni kamaymoqda, kamsuvlik takrorlanishi tobora ko'paymoqda, bu esa o'z navbatida suv tanqisligi kelib chiqish xavfining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, mamlakatning suv balansini boshqarishda vakolatli davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish zaruriy darajada olib borilmayapti, shuningdek suv resurslarining sifati va xavfsizligi monitoringini amalga oshirishning samarali tizimi yaratilmagan.

Hudud tuproqlarining gigiyenik holati va suv fizik kimyoviy xossalari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Mexanik tarkibi tuproq paydo qiluvchi ona jinslar xarakteriga bog'liq holda, asosan o'rta , yengil va og'ir qumoq, ba'zan qumloqlardan iborat bo'lib, ularda chang fraksiyasi (0,05- 0,01) ba`zida mayda qum fraksiyasi (0,1-0,05) muhim.

2. Tuproqlarning solishtirma massasi tuproq tiplaridan qat'iy nazar 2,63 – 2,71g/sm<sup>3</sup> atrofida tebranib turadi.



3. Xajm massa tuproq genetik qatlamlariga mos ravishda turli kattaliklarga ega bo'lib, 1,31 – 1,59 g/sm<sup>3</sup> gacha o'zgarib turishi mumkin.

4. Tuproqlarning umumiy fizik xossalari ayniqsa arid sharoitlarida tuproq xosil bo'lishga, uning evolyutsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi, tuproqlarning morfologik ko'rsatkichlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

5. Tuproqning umumiy fizik xossalarini yaxshilash uchun, zamonaviy innovatsion usullardan foydalangan holda sug'orish tartibotini to'g'ri joriy qilish, organik o'g'itlardan samarali foydalanish, sideratlar qo'llashni amalda joriy etish kerak.

Tuproqlarning tabiiy xossa va xususiyatlariga ko'ra baholashda asosiy mezonlardan biri uning fizik xususiyatlariga tayaniadi. Tuproq unumdorligi sharoitini yaratishda ham muhim omillaridan biri uning fizik xususiyatlari va fizik jarayonlari hisoblanadi. Respublikamizda bo'z tuproqlar sharoitida sug'oriladigan dehqonchilikda tuproqda kechadigan barcha kimyoviy, fizik, fizik-kimyoviy, biologik va boshqa jarayonlar odatda yil, fasllar, sutka davomida tez-tez o'zgarib turadi. Ayniqsa, sug'oriladigan sharoitda tuproqlarning qator xususiyatlari o'zining turg'unligini yo'qotadi, ya'ni sug'orish ta'siri natijasida qisqa vaqt ichida kimyoviy xususiyatlari o'zgaradi. Shuning uchun tuproqlarni tadqiq etishda nisbatan turg'un mezonlarni tanlash juda muhim

Toza ishlab chiqarish haqida gap ketganda, bu havo, suv va tuproqning ifloslanishiga to'sqinlik qiladigan, chiqindilarni yo'q qilish yoki ularni qayta ishlashga, ish samaradorligini oshiradigan va inson salomatligi va tabiiy sharoitlariga olib keladigan xavflarni bartaraf etadigan jarayonlar va texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. Toza ishlab chiqarish yondashuvida ifloslanishni nazorat qilish maqsadida tozalash va tuzatish ishlari emas, balki ifloslanishning oldini olishga e'tibor beriladi. Maqsadli tabiiy resurslardan maqbul foydalanishni ta'minlash. Shu ma'noda, faoliyat olib boriladigan arning ifloslanmasligi muhim ahamiyatga ega. Tuproq va er osti suvlarining kon qazish ishlari bilan ifloslanishi, faoliyat olib boriladigan hududdan tashqarida ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ilg'or laboratoriylar tomonidan o'tkazilgan ifloslanish tadqiqotlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolar oldini olinadi va korxonalar qonuniy majburiyatlarini bajarishlari uchun qo'llab-quvvatlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sodan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.



2. Kimberg N. V. Pochvi pustinnoy zoni Uzbekskoy SSR. T.: Fan, 1974. -bet 11-52.
52. (Kimberg N. V. (Soils of the desert zone of the Uzbek SSR. T.: Science, 1974. - p 11-52).
3. Qo'ziyev R. Q, Sektimenko Y. V. Pochvi Uzbekistana. T.: "EXTREMİUM PRESS", 2019 –115 – 117. бет
4. Gafurov K, Abdullayev S. Xarakteristika pochvennogo pokrova oroshaemoy zoni Buxarskoy oblasti. T. Fan, 1982 – bet 140-b.
5. Абдуллаев С. Агрофизические свойства и солевой режим орошаемых почв оазисов Бухарской области: Автореф. дис... канд. с.-х. наук.. Т.: 1975. –34-bet
6. [www.wikislovar.ru /](http://www.wikislovar.ru/)
7. [//www.philosophypages.com/dy/](http://www.philosophypages.com/dy/)